


**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI  
(2021-yil yanvar-iyun oyi uchun dastlabki ma'lumot)**

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yil yanvar-iyun oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 510,4 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 103,6 mln.AQSh dollariga ko'paydi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI  
(yanvar-iyun, mln.AQSh dollari)**

Ma'lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 220,9 mln.AQSh dollariga (17,4 % ga ko`paydi) va import hajmi 289,5 mln.AQSh dollariga (32,4 % ga ko`paydi) yetdi. Hisobot davrida – 68,5 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT  
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO`LGAN DAVLATLAR  
(2021- yil yanvar-iyun, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	143,7	96,5	47,2	28,1
Xitoy Xalq Respublikasida	133,0	33,0	100,0	26,0
Qozog`iston	55,9	20,0	35,9	10,9
Turkiya	48,5	15,8	32,7	9,5
Qirg`iz Respublikasi	31,6	28,7	2,9	6,2
Hindiston	10,1	0,6	9,5	2,0
Ukraina	7,5	4,4	3,1	1,4
Polsha	7,4	4,1	3,3	1,4
Germaniya	6,4	0,8	5,6	1,2
Belarus	6,0	1,2	4,8	1,1

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 71 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (28,1 %), Xitoy Xalq Respublikasida (26,0 %), Qozog`istonda (10,9 %), Turkiyada (9,5 %), Qirg`iz Respublikasida (6,2 %), Hindiston (2,0 %) va Ukraina (1,4 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, qo`shni davlatlar Qozog`iston va Qirg`iz Respublikalari bilan TSA da so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Qirg`iziston va Qozg`iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Tayvan, Germaniya, Turkiya va Hindiston davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (143,7 mln.AQSh.dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (133,0 mln.AQSh.dollari), Qozog`iston (55,9 mln.AQSh.dollari), Turkiya (48,5 mln.AQSh.dollari), Qirg`iz Respublikasi (31,6 mln.AQSh.dollari ) va Hindiston (10,1 mln.AQSh.dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 14 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN  
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyun, ming.AQSh.dollari)**

Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>95159,9</b>	<b>102228,4</b>	<b>143708,7</b>
Eksport	59705,7	63227,3	96520,3
Import	35454,2	39001,0	47188,3
Saldo	24251,5	27226,3	49332,0
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>117653,4</b>	<b>94567,0</b>	<b>133083,5</b>
Eksport	20551,9	16369,7	32994,8
Import	97101,4	78197,3	100088,7
Saldo	-76549,5	-61827,6	-67093,9



Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
<b>Qozog`iston</b>	<b>51892,1</b>	<b>48742,8</b>	<b>55899,8</b>
Eksport	28824,5	27011,1	20016,3
Import	23067,7	21731,7	35883,5
Saldo	5756,8	5279,5	-15867,2
<b>Turkiya</b>	<b>60674,2</b>	<b>21667,0</b>	<b>48565,7</b>
Eksport	8582,6	6551,5	15848,2
Import	52091,6	15115,5	32717,5
Saldo	-43509,0	-8564,0	-16869,3
<b>Qirg`iziston Respublikasi</b>	<b>56248,5</b>	<b>53110,5</b>	<b>31604,0</b>
Eksport	54530,3	50480,9	28721,1
Import	1718,2	2629,6	2882,9
Saldo	52812,1	47851,3	25838,1
<b>Hindiston</b>	<b>6474,6</b>	<b>3458,1</b>	<b>10166,9</b>
Eksport	288,2	226,8	655,3
Import	6186,3	3231,3	9511,6
Saldo	-5898,1	-3004,6	-8856,3
<b>Ukraina</b>	<b>7974,9</b>	<b>4394,7</b>	<b>7568,8</b>
Eksport	3798,3	3683,0	4434,3
Import	4176,6	711,7	3134,6
Saldo	-378,3	2971,3	1299,7
<b>Polsha</b>	<b>4524,4</b>	<b>3948,6</b>	<b>7474,2</b>
Eksport	1417,5	3158,4	4132,3
Import	3107,0	790,2	3342,0
Saldo	-1689,5	2368,2	790,3
<b>Germaniya</b>	<b>11595,0</b>	<b>9085,2</b>	<b>6392,3</b>
Eksport	2514,9	1657,6	807,1
Import	9080,1	7427,6	5585,3
Saldo	-6565,2	-5770,0	-4778,2

Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
<b>Belarus</b>	<b>1973,4</b>	<b>1566,2</b>	<b>6015,6</b>
Eksport	887,4	1294,8	1234,8
Import	1086,0	271,4	4780,7
Saldo	-198,6	1023,4	-3545,9
<b>Turkmaniston</b>	<b>2377,2</b>	<b>2922,6</b>	<b>5994,6</b>
Eksport	532,9	1592,3	1507,6
Import	1844,3	1330,3	4487,0
Saldo	-1311,4	262,0	-2979,4
<b>Tayvan</b>	<b>1271,5</b>	<b>843,1</b>	<b>5393,5</b>
Eksport	214,5	0,0	42,7
Import	1057,0	843,1	5350,8
Saldo	-842,5	-843,1	-5308,1
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>11604,3</b>	<b>8690,6</b>	<b>5080,7</b>
Eksport	45,0	154,4	87,1
Import	11559,3	8536,2	4993,6
Saldo	-11514,3	-8381,8	-4906,4
<b>Italiya</b>	<b>2508,3</b>	<b>2952,7</b>	<b>4388,5</b>
Eksport	272,3	898,4	673,9
Import	2236,0	2054,3	3714,6
Saldo	-1963,7	-1155,9	-3040,6
<b>Malayziya</b>	<b>3391,3</b>	<b>4799,5</b>	<b>4272,9</b>
Eksport	0	0	0
Import	3391,3	4799,5	4272,9
Saldo	-3391,3	-4799,5	-4272,9
<b>Fransiya</b>	<b>538,9</b>	<b>2555,6</b>	<b>3911,9</b>
Eksport	86,6	0	0
Import	452,3	2555,6	3911,9
Saldo	-365,7	-2555,6	-3911,9

Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
<b>Tojikiston</b>	<b>662.3</b>	<b>2854.2</b>	<b>2650.4</b>
Eksport	403.6	2523.2	1946.2
Import	258.7	331.0	704.2
Saldo	145.0	2192.2	1242.0
<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>2676.0</b>	<b>1188.6</b>	<b>2509.2</b>
Eksport	580.8	214.6	240.2
Import	2095.2	974.0	2269.0
Saldo	-1514.4	-759.4	-2028.8
<b>Argentina</b>	<b>1918.5</b>	<b>402.1</b>	<b>2439.3</b>
Eksport	0	0	0
Import	1918.5	402.1	2439.3
Saldo	-1918.5	-402.1	-2439.3
<b>Portugaliya</b>	<b>793.7</b>	<b>816.5</b>	<b>2024.1</b>
Eksport	597.2	805.1	1883.8
Import	0	805.1	140.3
Saldo	597.2	11.4	-1743.4

Viloyatda tashqi savdoni qo`llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo`yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-iyun oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 49,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi 17,3 % ga ko`paygan.

NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA  
MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI  
(yanvar-iyun, % va ulushi )




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021- yil yanvar-iyun oyida 2020- yilning shu davriga nisbatan ko'paydi (3,4 % ga) va jami TSA dagi ulushi 50,1 % ni tashkil etdi.

## NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-iyun)

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning eksportyorlar soni 356 tani tashkil etib, ular tomonidan 220,9 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 17,4 % ga ko`paydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta`minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,5 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (71,2 %), Oziq-ovqat mahsulotlari (17,3 %) va Mashinalar va transport asbob-uskunalari (2,7 %) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**EKSPORT TARKIBI**  
(2021- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Rangli metal
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar
- Qora metal
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Sanoat mahsulotlari
- Xizmatlar
- Boshqalar





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI  
(2021- yil yanvar-iyun)**

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	<b>220,9</b>	<b>155,6</b>	<b>65,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	38,2	32,2	6,0	17,3	14,5	2,8
Rangli metalar	0,03	0,01	0,02	0,1	0,04	0,06
Qora metalar	1,6	1,3	0,3	0,7	0,6	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	3,4	3,1	0,3	1,5	1,4	0,1
Sanoat tovarlari	157,4	105,1	52,3	71,2	77,3	93,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	6,0	4,9	1,1	2,7	2,2	0,5
Xizmatlar	5,5	3,8	1,7	2,5	1,7	0,8
Boshqalar	8,8	5,2	3,6	4,0	2,3	1,7

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport

hajmi bo`yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to`g`ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR  
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-iyun, % va ulushi,)




2021- yilning yanvar-iyun oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 43,7 %), Xitoy Xalq Respublikasi (14,9 %), Qirg`iz Respublikasi (13,0 %), Qozog`iston (9,1 %), Turkiya (7,2 %), Ukraina (2,0 %) va Polsha (1,9 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 91,8 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2020- yining mos davriga nisbatan 39 davlatdan 44 davlatga ko'paydi.

### NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-iyun,% da)



- *Rossiya Federatsiyasi*
- *Xitoy Xalq Respublikasi*
- *Qirg'iz Respublikasi*
- *Qozog'iston*
- *Turkiya*
- *Polsha*

TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA  
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR  
(yanvar-iyun)

Davlatlar	Ming.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'ri	
	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.
Rossiya Federatsiyasi	63227,3	96520,3	105,9	152,7	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	16369,7	32994,8	79,7	201,6	4	2
Qirg'iz Respublikasi	50480,9	28721,1	92,6	56,9	2	3
Qozog'iston	27011,1	20016,3	93,7	74,1	3	4
Turkiya	6551,5	15848,2	76,3	241,9	5	5
Ukraina	3683,0	4434,3	97,0	120,4	6	6
Polsha	3158,4	4132,3	222,8	130,8	7	7
Tojikiston	2523,2	1946,2	625,1	77,1	8	8
Afg'oniston	1291,7	1929,5	525,5	149,4	12	9
Portugaliya	805,1	1883,8	134,8	234,0	14	10
Turkmaniston	1592,3	1507,6	298,8	94,7	10	11
Belarus Respublikasi	1294,8	1234,8	145,9	95,4	11	12
Moldovo Respublikasi	688,2	939,4	99,3	136,5	15	13
Germaniya	1657,6	807,1	65,9	48,7	9	14
Italiya	898,4	673,9	330,0	75,0	13	15
Guruziya	437,7	672,1	221,6	153,5	16	16
Hindiston	226,8	655,3	78,7	289,0	17	17
Belgiya	18,5	404,6	0,0	2185,1	20	18
AQSH	65,7	403,9	14,3	614,5	19	19
Isroil	149,0	335,8	370,1	225,3	18	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 5554.9 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,5 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 62,6 % ga ko'payganligi kuzatildi.

#### TO`QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To`qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o`rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo`shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko`rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 157.4 mln.AQSh dollarlik to`qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 71,2 % ini tashkil etdi va o`tgan yilga nisbatan 41,1 % ga o`sdi.


Viloyatning to`qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag`batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

## NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-iyun)

2021- yil yanvar-iyun oyida import hajmi 289,5 mln.AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 132,4 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, sanoat tovarlari (33,0 %) mashinalar va transport asbob-uskunalari (25,1 %), hamda Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (16,5 %) hisobiga to`g`ri keldi.

**IMPORT TARKIBI**  
(2021- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Rangli metal
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar
- Qora metal
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Sanoat mahsulotlari
- Xizmatlar
- Boshqalar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 70,8 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 289,5 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,5 mln.AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI  
(2021- yil yanvar-iyun)**

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>289,5</b>	<b>99,1</b>	<b>190,4</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	47,9	29,4	18,5	16,5	29,6	9,7
Rangli metalar	0,6	0,1	0,5	0,2	0,1	0,2
Qora metalar	27,7	16,8	10,9	9,1	16,9	5,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	51,7	7,5	44,2	12,8	7,5	23,2
Sanoat tovarlari	56,3	30,8	25,5	33,0	33,1	13,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	101,6	11,8	89,8	27,2	11,9	47,1
Xizmatlar	0,5	0,1	0,4	0,1	0,1	0,1
Boshqalar	3,2	2,6	0,6	1,1	0,8	0,2


Importning eng katta ulushi, jumladan, Sanoat tovarlari (33,0 %), Mashinalar va transport asbob-uskunolari (27,2 %) Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mahsulotlar (16,5 %) hamda MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari

(47,1 %), Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (23,2 %) va hissasiga to`g`ri keladi.


Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, 2021- yilning mos davriga nisbatan Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 16,5 % ga oshdi, kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 12,8 % ga oshdi, mashina va asbob-uskunalar 27,2 % ga oshdi.

### MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI

(yanvar-iyun, % va ulushi)







Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlat-lar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 34,6 % ulushi bilan Qozog`istonni 12,4 % ortda qoldirgan holda, birinchi o`rinni egalladi.


**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR  
(yanvar-iyun)**

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O`shish sur`ati, % da		O`rni	
	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	78197,3	100088,7	80,5	128,0	1	1
Rossiya Federatsiyasi	39001,0	47188,3	110,0	121,0	2	2
Qozog`iston	21731,7	35883,5	94,2	165,1	3	3
Turkiya	15115,5	32717,5	29,0	216,5	4	4
Hindiston	3231,3	9511,6	52,2	294,4	9	5
Germaniya	7427,6	5585,3	81,8	75,2	8	6
Tayvan	843,1	5350,8	79,8	634,6	19	7
Koreya Respublikasi	8536,2	4993,6	73,8	58,5	6	8
Belarus Respublikasi	271,4	4780,7	25,0	1761,5	25	9
Turkmaniston	1330,3	4487,0	72,1	337,3	15	10
Malayziya	4799,5	4272,9	141,5	89,0	10	11
Fransiya	2555,6	3911,9	565,0	153,1	12	12
Italiya	2054,3	3714,6	91,9	180,8	13	13
Polsha	790,2	3342,0	25,4	422,9	20	14

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O`shish sur`ati, % da		O`rni	
	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.
Ukraina	711,7	3134,6	17,0	440,4	21	15
Qirg`iz Respublikasi	2629,6	2882,9	153,0	109,6	11	16
Argentina	402,1	2439,3	21,0	606,6	22	17
Eron	974,0	2269,0	46,5	233,0	18	18
Avstriya	1672,4	1699,7	60,1	101,6	14	19
Shveysariya	9668,8	1601,4	3886,2	16,6	5	20

2021- yil yanvar-iyun oyi yakuni bo'yicha Namangan viloyati tomonidan 55 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI  
(2021- yil yanvar-iyun,% da)





Olti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Shveysariya va Koreya Respublikasi ) jami importning 78,7 % ini tashkil qiladi, bu 172250,5 ming.AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog`iston, Turkiya va Hindiston tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi  
boshqarmasi  
Tel.:(69)-211-72-00**